

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI DIDAKTIK G‘OYALAR

Habibullayeva Sohibjamol Akmaljon qizi

Filologiya fanlari bo‘yicha

*falsafa doktori (PhD) Farg‘ona davlat universiteti,
filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida katta o‘qituvchisi*

To‘raqulova Odinaxon Abrorjon qizi

Filologiya o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

sohibjamolhabibullayeva84@gmail.com

ORCID ID 0009-0006-7019-7816

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi har bir inson anglab yetishi zarur bo‘lgan axloqiy-ta’limiy ruhdagi muhim haqiqatlarni ya’ni asardagi didaktik xususiyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sharqdagi didaktik adabiyot, odob-axloq, saxovat haqida, vafo va hayo, sabr, saxovat va muruvvat.

Kirish

Turkiy xalqlar madaniyati va adabiy tafakkuri tarixida Alisher Navoiy alohida o‘rin egallaydi. U o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, nafaqat milliy, balki jahon adabiy merosi rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida e’tirof etiladi. Navoiyning badiiy va ilmiy merosi turkiy tilning boy imkoniyatlarini namoyon etish, uning estetik salohiyatini yuksak darajada ifodalash hamda adabiy til sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiyning nasriy merosida muhim o‘rin tutgan “Mahbub ul-qulub” asari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur asarda shoir jamiyat va inson hayotiga oid muhim axloqiy-me’yoriy masalalarni tahlil qiladi. Unda insoniy komillik, halollik, adolat, saxovat, ilmga munosabat kabi yuksak fazilatlar keng yoritilgan. Shu bilan birga, asarda jamiyatning turli tabaqa vakillarining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ularning odob-axloq mezonlari hamda ijtimoiy hayotdagi o‘rni badiiy-falsafiy jihatdan talqin etiladi.

Shu jihatdan qaralganda, Mahbub ul-qulub nafaqat adabiy-badiiy, balki ijtimoiy-falsafiy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim manba sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Didaktik adabiyot – (yun.didaktikos – o‘rgatuvchi, ta’limiy) muayyan ta’limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi. Sharq adabiyoti badiiy ijodiyoti qadimdan nafaqat estetik zavq berish vazifasini, balki insonni ma’naviy kamolotga yetkazish, uni odob va axloqli qilib tarbiyalash g‘oyasini ilgari

surgan. Shu boisdan, hikmatli soʻz, axloqiy tarbiya va pand-nasihat yaʼni didaktik asarlar, Sharq adabiyotining ajralmas qismidir. Sharq mutafakkirlari va ijodkorlari badiiy ijodni faqatgina sanʼat deb bilmay, balki tarbiya va odob vositasi deb bilganlar. Turkiy hamda fors-tojik adabiyotida pand-nasihat ruhidagi asarlar Navoiygacha boʻlgan davrda ham mavjud boʻlgan. Sharq adabiyotida pand-nasihat ruhida yozilgan asarlardan Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻubilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Saʼdiy Sheroziyning “Guliston” asarlari bunga misol boʻla oladi. Alisher Navoiy ham ularning ijodlarini chuqur oʻrganib, ularning anʼanasini davom ettirdi. Alisher Navoiy ijodiy merosini tahlil qilar ekanmiz, uni faqatgina nazm sohasining yirik namoyandasi sifatida emas, balki nasriy adabiyot taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qoʻshgan yetuk ijodkor sifatida baholash mumkin. Shu bois shoirni nafaqat yuksak badiiy sheʼriyat namoyandasi, balki mazmunan boy va gʻoyaviy jihatdan mukammal nasriy asarlar muallifi sifatida ham eʼtirof etish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Navoiyning didaktik mazmundagi asari “Mahbub ul-qulub”dir. Shoirning ushbu asaridagi har bir hikoyatlarda teran maʼno, ibrat va hayotiy xulosa mavjud boʻlib, bu esa Navoiy ijodining betakrorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Asar tarkibidagi hikoyalarning ravonligi, qoʻllanilayotgan badiiy sanʼatlarning nozikligi hamda fikr-mulohazalarning aniq va ravshan ifoda etilishi adibning nasriy asarlarda ham yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlaydi.

Natija va muhokama

“Mahbub ul-qulub” asarining kirish qismida :

Gahe topdim falakdin notavonligʻ,

Gohe koʻrdim zamondin komronligʻ,

Base issigʻ, sovugʻ koʻrdum zamonda,

Base achchigʻ, chuchuk tottim jahonda.

Yaʼni shoir oʻzining umr yoʻliga nazar tashlab, turli davrlarni, xilma-xil holatlarni boshdan kechirganlarini, hayotining totli va achchiq tomonlarini koʻrganligini aytib oʻtadi.

Asarning ayrim boblari odob-axloq, taʼlim-tarbiya, saxovat, muruvvat, sabr-qanoat, vafo va hayo kabi ezgu insoniy fazilatlarni madh etishga bagʻishlangan boʻlib, ularda insonni komillikka eltuvchi ibratli fikrlar va chuqur maʼnaviy xulosalar oʻz ifodasini topgan. Navoiyning odob-axloq toʻgʻrisidagi fikrlarida insondagi yomon odatlarni qoralaydi, nojoʻya xulq-atvorni tanqid qiladi, aksincha insonni bezaydigan fazilatlarni yuksak darajada qadrlaydi hamda yosh avlodni bilim olishga, ilm oʻrganishga va odobli goʻzal xulqli yetuk inson sifatida voyaga yetishiga daʼvat etadi.

Mutafakkir shoir “Mahbub ul-qulub” asarida saxovat va himmat kabi ijobiy fazilatlarni ham ilgari surgan. Navoiy insonning eng ulugʻ fazilatlaridan biri boʻlgan saxovatni goʻzal tashbexlar bilan tasvirlaydi: “Saxovat insoniyat bogʻining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri

mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari. Saxovatsiz kishi-yoginsiz abri bahor va royahasiz mushki totor”. Ya’ni saxovat bu - insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u tolqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yoginsiz bahor bulutiga va hidi yoq mushk-anbarga oxshaydi. Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy saxovat haqida so‘z yuritar ekan, uni insoniylikning eng ulug‘ fazilatlaridan biri sifatida yuksak maqom beradi. Saxovatli insonni jamiyatga fayz beruvchi, boshqa insonlarga manfaat yetkazuvchi komil inson sifatida ta’riflaydi.

“Mahbub ul-qulub asari”dagi muruvvat bobida aytilganki: “Ma’dumluqda muruvvat karamning urug‘-qayoshidur, balki tav’amon qarindoshidur. Ikkalasi chun el bevafoq‘idin ogah bo‘lubtur, bulardin qochib adam mulki safariga hamroh bo‘lubtur. Sohibi karam ul nafis matoyidin ayrilurni saloh bilmaydur va sohibi muruvvat dag‘i ul sharif xalqidin ayrilmaydurkim, ikkalasi qayda bo‘lsalar Tengri panohida bo‘lsunlar, izzat va sharaf oromgohida”. Demak, bu mavhum olamda insondagi eng go‘zal hislatlar-muruvvat hamda saxovat bir urug‘dandir. Ular ma’lum bir urug‘dan emas balki xuddi egizak qarindoshlardekdir. Bu ikki fazilat insonlarning vafosizligini anglab yetgandan so‘ng, ulardan yuz o‘girgan va hatto mavhumlik dunyosiga safar qilishni ma’qul ko‘rgan.

Chinakam saxovatli inson bu bebaho ne’matdan foydalanishni ma’qullamaydi. Muruvvatli inson ham o’sha sharaflil insonlardan ayirilmaydi. Ularning ikkalasi qayerda bo‘lishlaridan qat’iy nazar Alloh panohida bo‘lib, hamisha izzat-ikromda bo‘lib, sharafda yashasinlar deb aytiladi. Ushbu jummalardan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy saxovat va muruvvatni jonlantirib, bayon qilgan bu esa, saxovat va muruvvat kabi fazilatlarining naqadar insoniy xislatlarga ko‘rk berib turishini anglatadi. Asarning bu bobidan mutafakkirning ushbu ikki fazilat egalarini yuksak darajada qadrlaganligi, ularni insoniy fazilatlarining eng oliy namunasi sifatida e’tirof etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asarda shoir yana bir insoniy go‘zal xislat ya’ni kishining matonati haqida sabr bobini keltiradi. “Sabr o‘zni chiqarmoqdur huzuzi nafsonidin va tana’umoti jismonidin va nafsini habs qilmoqdur ibodat mehnatida va qadamni sobit qo‘ymoqdur riyozot suubatida” ya’ni sabr bu insonning nafs va istaklari hamda jismoniy lazatlardan tiyishdir. Shuningdek, sabr nafsni ibodat mashaqqatida tiyib turishdir hamda riyozat mashaqqatlarida ham qat’iy yondashishdir. Sabr bobida yana shunday satrlar keladi: “Achchig‘dur, ammo sudmand; qattig‘dur, ammo dofei gazand. Qaysi nomurod ilik sabr etagiga urdikim, murod topmadi? Va qaysi giriftor ko‘ngul sabr bandig‘a qo‘ydikim, kushod topmadi? Farahlar miftohidur va bandlar fattohidur”. Ushbu jummalardan anglashimiz mumkinki, sabr-achchiqdir lekin foydali; u qattiq ammo zarar va turli xil ofatlardan saqlaydi. Biror maqsadiga yetolmay, faqatgina sabr qilgan odam o‘z murodiga yetmaganmi? Yoki biror inson dardiga sabr bilan malham topmaganmi?

Sabr aslida, quvonch kaliti va jamiyki mushkulotlarning yechimidir. Navoiy sabrni quvonchning kalitiga o'xshatayapti. Bu bilan shoir sabr qilgan kishi hamisha murodiga yetadi. Bir so'z bilan aytganda: "Sabrning tagi sariq oltin" ekanligini chiroyli tashbehtar bilan namoyon qilyapti.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida vafo hamda hayo tushunchasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Asarda: "Karam va muruvvat ato va anodurlar, vafo va hayo ikki hamzod farzand. Har necha ul ikovga nur bila safodur, bu ikavga ittisol bila payvand. Har ko'ngulnikim, vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur. Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. Har kimda bu ikki yo'q, imon yo'q va har kimda imon yo'q, andin odamiylik kelmoq imkon yo'q". Ya'ni, saxovat va muruvvat ota-onadir, vafo hamda hayo esa ularning egizak farzanlaridir. Saxovat va muruvvat qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa vafo va hayo ham o'zaro mustahkam bog'langan. Qaysiki ko'ngilda vafo bo'lsa, o'sha ko'ngilda hayo ham albatta bo'ladi. Vafosiz kishida hayo bo'lmaydi, hayosiz kishida esa vafo. Agar kimda bu ikki sifat ham bo'lmasa u kishida imon ham bo'lmaydi. Imoni yo'q kishidan haqiqiy insoniylikni kutib bo'lmaydi. Alisher Navoiy ushbu bobda vafo va hayoning insondagi uzilmas zanjirini go'zal tarzda ifoda etib bergan. Shoir bu ikki fazilatli kishilarni ulug'laydi ammo bu xislatlar bo'lmagan kishilarni imonsiz deb ataydi. Demak, vafo va hayo ham insonning aslida kim ekanligini isbotlovchi fazilatlardir.

Xulosa

"Mahbub ul-qulub" asari bugungi kun uchun ham muhim asardir. Ushbu asar yosh avlodni tarbiyalashda, ijtimoiy va ma'naviy o'sishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, bu asar inson qalbining eng nozik jihatlarini ochib beruvchi, axloqiy va ma'naviy ibratga boy asar bo'lib, bu asarni o'qish har bir inson uchun ma'naviy ozuqa va hayotiy saboq beradi. Asardagi ilgari surilgan motivlar kishini halollik, poklik, vafo, hayo, saxovat, sabr kabi fazilatlar orqali kishini haqiqiy komil, yetuk inson darajasiga yetkazishga xissa qo'shadi. Bu esa asarning faqatgina adabiy emas, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham yuksak darajaga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy., Mahbub ul-qulub. – Toshkent 2018, 5-bet
2. Alisher Navoiy., Mahbub ul-qulub. – Toshkent 2018, 60-bet
3. Alisher Navoiy., Mahbub ul-qulub. – Toshkent 2018, 88-bet
4. Alisher Navoiy., Mahbub ul-qulub. – Toshkent 2018, 89-bet
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug'ati . – Toshkent: Akadernashr, 2013. 91-bet
6. S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, SH. Rizayev "Adabiyot" 2-qism Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun adabiyot darsligi., – Toshkent 2017, 32-bet